

TA'LIM SIFATINI KO'TARISH UCHUN O'QUVCHILARNI MUSTAQIL ISHLASHGA O'RGATISH ZARUR.

SamDU ixtisoslashtirilgan maktabi

direktori **A.J.Ernazarov.**

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada o'quvchining ijtimoiy faolligini oshirish va mustaqil ishlashga o'rgatishdagi muhim omillarga e'tibor qaratilgan. Ta'lrim tizimida shaxsni rivojlantirish, egallagan nazariy bilimlarini amaliy ishlarni bajarishda qo'llay bilishi, mustaqil ishlashga o'rgatishning qulay yo'llaridan biri ekanligi ta'kidlangan. Yana ta'lrim sifatini ko'tarishga va o'quvchilarni mustaqil ishlashiga ta'sir e'tuvchi ba'zi omillar yuzasidan o'tkazilgan kichik tadqiqotlar keltirilgan

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, mustaqil ishslash, ta'lrim va tarbiya, rivojlantirish.

Bugungi dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida jamiyatning rivojlanishi yuqori texnologik ta'minlanganlik, sifat, fan va texnologiyalar yutuqlarining hayotiy masalalarga tadbiq e'tilganligiga bog'liq. Agar bunga qo'shimcha ravishda zamonaviylik bilan birgalikda qadim avlod-ajodolar qadriyatlari asosida tarbiyalangan, avvalom bor ustozlar va ulug'larni tinglay oladigan darajada ahloqli, mustaqil fikrini ham ifoda eta oladigan, sabrli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash masalasi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, jamiyatimiz yuksak darajada rivojlanar edi. Raqamli texnologiyalar keng qo'llanilayotgan bugungi davrda barcha aholini sifatlari bilim va kasb-hunarga o'qita olayotgan davlatlarda farovonlik yuqori bo'lib, munosib ish o'rnlari va ish haqlari mavjud. Ulkan axborotlar oqimidan unumli foydalaniib, o'zgaruvchan dunyoda samarali faoliyat yurita oladigan, mamlakatni har tomonlama rivojlantiradigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi oldimizda turibdi. Juhon hamjamiyatni tomonidan qabul qilingan "Ta'lrim-2030" Inchxon deklaratsiyasiga ko'ra aholisini barcha qatlamlarini ilm-hunarga o'rgatishga, daromadlarni o'shirish va ishlab chiqarishni kengaytirishga harakat qilishi uchun davlatlarni ta'lrim sifatini o'shirishga katta ehtiyoji bor. O'zbekiston ta'lrim tizimida shaxsni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi va bo'shlang'ich sinflardan bunga e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan shaxs rivojida umumiyl qonuniyatlar deganda individni ta'lrim va tarbiya vositasida ijtimoiy shaxsga aylantirish asoslari tushuniladi. Bu boradagi asosiy qonuniyatlar tizimini quydagilar tashkil etadi: Aqlni rivojlantirish, estetik his-tuyg'ularni shakllantirish, jismoni rivojlantirish, turli streslarga bardoshlilikni rivojlantirish, o'z-o'ziga ishonchni rivojlantirish, mustaqillik ko'nikmasini rivojlantirish, shaxsni faollikni rivojlantirish, o'zgalarga va atrof-muhitga munosabatni rivojlantirish. Mazkur qonuniyatlar asosida ta'lrim va tarbiya jarayonida o'quvchilar shaxsi izchil rivojlantirib boriladi. O'zbekistonda xalq an'analari, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik kabi milliy qadriyatlar va bag'rikenglik, demokratlik, birodarlik singari umuminsoniy qadriyatlarga ham amal qilinadi.

O'quvchilarni aqliy rivojlanishi hisobga olinadi, mustaqil ishslashga o'rgatiladi va o'rgatish jarayonida beriladigan bilimlar tabaqa lashtiriladi. Bunda quydagilarga ahamiyat beriladi:

-
- o'quvchining bilim darajasi;
 - o'quvchining tushunish darajasi;
 - o'quvchining fikrlash darajasi;
 - o'quvchining qiziqish darajasi;

O'quvchining ijtimoiy faolligi ham mustaqil ishlashga o'rgatishda muhim omillardan hisoblanadi. Egallangan nazariy bilimlarni amaliy ishlarni bajarishda qo'llay bilish mustaqil ishlashga o'rgatishning qulay yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadi. Asta-sekin loyiha topshiriqlari berish bilan o'quvchilarini yanada mustaqil qarorlar qabul qilish , yechimlar taklif qilish va tadbiqiy jihatlarini ilg'ab olishga o'rgatib boriladi.Beriladigan masala yoki topshiriqnini bir necha yechimlarini taklif qilishga o'rgatish ham o'quvchi iqtidorini o'shishiga , mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirishga hamda umumiy xulosalar chiqarishga turki beradi. Lekin bunda yo'sh xususiyatlari, o'quvchilarining temperamentlari va alohida yondashuvni talab qiladigan hissiyotlari bilan hisoblashish kerak. Turli rasmiy va norasmiy tadbirlar,diniy marosimlar, to'ylar, bazmlar yoki oila davralarida yo'shlar fikrini eshitmaslik, faqat kattalar bo'sh ro'lida bo'lishi aksariyat yoshlarni tinglovchi bo'lib o'sishiga sabab bo'ladi. Ta'limgarayonida ham bu holat davom etadi va "tayyor" ma'lumotlarni tinglab, faqat ruxsat berilganda fikr bildirish yoki mustaqil o'ylab ko'rish kabi xarakter shakllana bo'shlaydi. Shuning uchun ta'limgarayonida sohasidagi islohatlarimiz to'laqonli amalga o'shishi shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyatda oilalardagi munosabatlarni ham takomillashtirishni talab qiladi. Agar maktab va oila hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, maktab yoshidagi mustaqil ishlashga o'rganmagan o'quvchini ham shakllantirish mumkin bo'ladi. O'zbekistondagi juda ko'p oilalarda 3-4 nafardan farzandlar borligi ham bu muammoni hal qilishda asqotadi. PISA tadqiqotiga ko'ra farzandlari bitta bo'lgan oilada o'sayotgan o'quvchiga nisbatan ikki yoki undan ko'p farzandli oilada o'sayotgan o'quvchilarining fanlarni mustaqil o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada farq qilgan. Bu kabi tahlillarni X asr oldin buyuk bobokalonimiz Farobi ham e'tirof etgan. Farobiyning fikrlariga ko'ra, inson o'z aqli bilan atrofidagi dunyoni anglaydi. Inson o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiyidir(odamlarsiz ko'p narsaga erisha olmaydi). Bugungi kun o'quvchilarining o'qituvchilar bilan va o'zaro muloqot qilish vositalarining rivojlanganligi ularni mustaqil ishslash imkoniyatlarini oshiradi. O'quvchilardagi turli gatdjetlar mavjudligi, chat botlar(kanallar) va ta'limgarayonida ilovalarining ta'komillashib borayotganligi o'qituvchi va ota-onalarning nazorati ostida o'quvchilarining ma'lumotlar izlashi va natijalarga tezroq erishishiga juda katta qulayliklar tug'diradi.

Ta'limgarayonida qaratilgan xalqaro tadqiqot asosida men rahbarlik qilayotgan maktabda o'quvchilarini mustaqil ishlashiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga qaratilib, o'tkazilgan kichik tadqiqotda ham o'quvchilarining bir qismi berilgan topshiriq va mustaqil ishlarni bajarishda telefon, turli gadgetlar va ulardagi ilovalardan foydalanishlarini bildirishdi. Bundan tashqari iqtisodiy holatlari yaxshi bo'lgan holda ovqatlanish va sportga e'tibor kamligi, hamda mustaqil bilim olishda o'quvchilarining bir qismigina darsliklardan foydalanishlarini dunyo yangiliklaridan internetga ulanganlar miqdoridagilarning xabardorligi ma'lum bo'lди. Achinarlisi ko'pgina o'quvchilarining ota-onasi chet ellarda ekanligi va uydagilarining ham katta qismi farzandlar o'qishini tekshirmasligi farzandlari tomonidan e'tirof etildi.

Sh.Rashidov nomidagi SamDU aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari jadvali:

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://wordlyknowledge.uz/>

1-IYUN,2024

	Savollar	Maktabning so'ro'vnoma qatnashgan jami o'quvchilari.	Ha deb javob berganlar	Foizlarda %	
1	Fanlarni, uy vazifalarini bajarishda telefondan foydalanasizmi?	283	158	56 %	
2	Uyingizda nechta kitob bor? (20 tadan ko'p bo'lsa HA)	283	205	72 %	
3	Mashina,konditsaner, televizor,holadenlik,aristonuyingizdabormi?	283	202	71 %	
4	Uyda necha kishi yashaydi?(3 tadan ko'p bo'lsa HA)	283	198	70 %	
5	Kompyuter bormi?	283	172	61 %	
6	Internet tarmog'i mavjudmi(wi- fi)?	283	188	66 %	
7	Tushlik vaqtida issiq ovqat istemol qilasizmi ?	283	181	64 %	
8	Bazan och qolasizmi ?	283	149	52 %	
9	Kerakli darsliklar bormi?	283	180	64 %	
10	Ota yoki onangiz chet eldamni?	283	95	34 %	
11	Badantarbiya qilasizmi?	283	155	55 %	
12	Sport bilandoimiyshug'ullananasizmi?	283	123	43 %	
13	Dunyo yangiliklarini kuzatasizmi?	283	174	61 %	
14	Kelajakda kim bo'lmoqchisiz ?	283	Moliya-iqtisod va biznes	121	43 %
			Shifokor	102	36 %
			IT , dizayner	26	9 %
			Rahbar va yuqori amallar	19	7 %
			O'qituvchi	15	5 %
15	Ota-onangiz o'qishingizni tekshiradimi?	283	162	57 %	

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://wordlyknowledge.uz/>

1-IYUN,2024

16	Har zamonda tekshiradi, tekshirmaydi?	283	125	44 %
17	Bir kunda qancha pul sarflaysiz?(25-30000 dan ko'p bo'lsa HA)	283	127	45 %

Tadqiqotimizda o'quvchilar oilasining umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli bo'lismiga qaramay, yaxshi tushlik qilmasliklari ma'lum bo'ldi. Ota-onalar bilan gaplashganimizda oziqlanish uchun berilgan pulni boshqa maqsadda ishlatishlari ayon bo'ldi. Maktabga boradigan farzandlarga tushlik uchun pul emas, balki yegulik tayyorlab berilsa, darsdan keyin qolib, mustaqil ishlashiga yetarli vaqt ajratishlari mumkin. Yuqoridagi tahlillarimizdan kelib chiqib o'quvchi bilimini oshirishda hattoki ota-onaning nazorati ham pasayib ketayotganini e'tiborga olsak, o'quvchilarning mustaqil ishlashga o'rgatib borishimiz naqadar dolzarb ekanligini ko'rish qiyin emas.

Munosabatlar

tizimi kabi hamkorlik ham ko'pqirrali hodisadir. "O'qituvchi-o'quvchi" munosabatlari bu tizimda muhim o'rinni egallaydi. O'quvchi shaxsiga yangicha nuqtai nazardan yondashishni ta'limning markaziga qo'yib, uni shaxsnинг barcha sifatlarini yaxlit tarzda rivojlantirishga yo'naltirish lozim. Bunday rivojlantirish choralar o'quv jarayonining asosiy natijasini ifodalaydi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining shaxsiyati, ichki olamiga e'tibor qaratishi lozim. Chunki ularning layoqatlari bu davrda to'liq namoyon bo'lmaydi. Natijaga erishish uchun pedagoglar mакtab psixologи bilan bиргаликда o'quvchining o'ziga xos xусусиятларини kashf etishlari lozim. Shundagina ularning ahloqiy sifatlari, mustaqilliklari va haqiqiy qiyofalari to'liq tarzda namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayoning asosiy maqsadi o'quvchilarning salohiyati va imkoniyatlarini safarbar qilish, ularning hayotiy faoliyatlarini bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Shuningdek, mazkur imkoniyatlardan o'quvchi shaxsining mukammal, mustaqil rivojlanishi yo'lida foydalanish usullarini izlash lozim. Iqtidorli o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'quvchi shaxsiga e'tibor bilan yondashishdan boshlash kerak.

Bular: -ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxs sifatida to'laqonli shakllanishini ta'minlash;

- o'quvchilar pedagogik jarayonning sub'yekti sifatida faoliyat ko'rsatishiga erishish;
- o'quvchilarni rivojlantirishni ta'lim jarayoninig asosiy maqsadiga aylanishini ta'minlash;
- har bir o'quvchini layoqatini e'tirof etish va ularni qobiliyatli ekaniga ishonish;
- o'quvchilarda shaxs uchun zarur bo'lgan ijobjiy sifatlar : rahmdillik, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vijdonlilik, yetuklik, mustaqil fikrga egalik nomoyon bo'lishi uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.

O'quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarganda ularning aqliy faoliyati ishga tushadi , o'z bilimi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchi ortadi.

Raqamlı texnologoyalar esa darslarni o'tishda ta'lim samaradorligini o'shiradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashlarini shakllanishiga yordam beradi.

Amaliyotda dars loyihasi ham, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari ham har doim ham qulay bo'lavermaydi.

O'quvchilarni juda ko'p vaqtлari o'qituvchi nazoratisiz o'tadi. Demak ularni mustaqil ishlashini qandaydir metodlar bilan shakllantirib borish eng muhim masalalardan bo'lib qolmoqda. Bunda o'quvchilarda mavjud intelektual hususiyatlardan unumli foydalanish kerak.

Mustaqil ishlashda o'quvchi o'z-o'zini rivojlantirish rejasiga ega bo'lishi, atrofidagilar ham uning rivojlanishiga ta'sir qiladigan bo'lishi, kerak bo'lganda uning yolg'iz ishlashiga sharoit yaratishda o'qituvchi omili ham muhim hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy insonlarga qo'yiladigan talablar: o'z ona tilida saviyali munosabatlarga kirishish, chet tillarda muloqot qilish, fan-texnologiyalar bo'yicha matematik savodlilik, kompyuter savodxonligi , yaratuvchanlik va tadbirkorlik kabi turli ko'nikmalariga ega bo'lishdan iborat. PISA tadqiqotlarida ham zamonaviy dunyo kadrlari tanqidiy fikrlash, kreativlik, ilmiy qobiliyat, tashabbus va qat'iylik, mustaqil fikrlash, sistemali va funksional savodxonlik darajasi rivojlanganligi bo'yicha baholanadi. 80-yillarda zamonaviy texnologiyalar sifatida kompyuter, kodoskop, electron doskalar tushunilgan. Bugungi kunga kelib raqamli texnologiyalar shu darajada rivojlandiki, kerakli materiallarni saralash, ma'lum bir qo'yilgan talabga mos keladiganlarini tavsiya qilish yoki maslahatlashadigan dasturiy manbaalar yoki sun'iy intelektdan foydalanilyapti.

Imkoniyatlar ko'laming bu darajada o'shib borishi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish uchun yanada katta sharoit yaratadi. Yani raqamli texnologiyadan behabar o'qituvchi bugungi kun o'quvchisini talablarini bajara olmaydi. Mustaqil ishlashni esa samarali tashkil qila olmaydi. O'zbekiston maktablarida o'quvchilar qiziqishlaridan kelib chiqib, kasbga yo'naltirilgan yoki ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilmoqda. Bu masalaga yillar davomida e'tibor qaratilayotgan bo'lsada olingen bilimlarni amalda qo'llay olish masalasida juda ko'p muammolarimiz bor. Shu sababli o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ishlashga o'rgatish bo'yicha strategiya ishlab chiqish zarurati bor. Buni amalga o'shirish boyicha (Sank-Peterburg samarali o'qitish instituti) beshta tamoyil taklif qilinadi:

1.Reja tuzish, 2. Holat ahvoli. 3. Kelajakda ishlar, 4. Qabul qilish va 5. Xulq tamoillari. Yana o'z-o'zini nazorat qilishga yo'naltirilgan uzoq muddatli dasturlarni rejalshtirish va tadqiq qilish talab qilinadi. O'quvchi-yo'shlarni o'ziga xos jamoalari va auditoriyasidan kelib chiqib, mактабда yoki mustaqil egallangan bilimlarni o'zaro almashishlari va bo'shqalarga o'rgatishlarini yo'lga qo'yish juda samarali hisoblanadi. Shveytsariyaning Jeneva shahridagi soatsoz oilasida tug'ilgan mutafakkir Jan Jak Russoning(XVIII-asr bo'shi) fikricha o'quvchini shakllantirish va samarali tarbiyalashda tabiiylikka e'tibor qaratish kerak. Bolaga bilimni zo'rlab emas, uning qiziqishlaridan kelib chiqish zarurligini , bola o'zi qiziqish bilan shakllantirgan tajribalarni egallyadi. Yani qiziqdigan bilimlarni mustaqil egallashi mumkin. Buning uchun eng samarali vaqt 12-15 yo'sh ekanligini ham aytib o'tgan.

Jaloliddin Rumiyning ham kitob o'qishdagi asosiy maqsad ma'nodir degan fikrlari bor. Yani o'rgatilgan va o'rganiladigan bilimlarni mohiyatini tushunish hamda qo'llay olish maqsadi aniq bo'lishi kerak. Yuqorida keltirilgan barcha fikrlardan xulosa qilamiz. Demak, o'quvchilarni(iqtidorli) mustaqil ishlashga o'rgatishning meyoriy-huquqiy va metodologik asoslari shakllantirilishida dunyo xalqlari tajribalari, zamonaviy metodlar, raqamli texnologiyalar bilan birgalikda ularni o'z-o'zini rivojlantirish, ijodkorlik xususiyatlari, tanqidiy fikrlash, kreativlik, ilmiy qobiliyat, tashabbus va qat'iylik, mustaqil fikrlash, sistemali va funksional savodxonlik darajasi rivojlanganligi, o'ziga xoslik va ta'lim –tarbiyaning qadriyatlarimiz bilan uyg'unligiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Foydalanimganabiyotlar ro'yxati:

1. E. G'oziev. Psixologiya 1-48-165- bet Toshkent.“Universitet”-2002.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://wordlyknowledge.uz/>

1-IYUN,2024

2. Saydimova.M. Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Наука и технология в современном мире 1(7) 249-254-стр
3. uz.wikipedia.org
4. O'rishev A.N ChirDPU(2021) Mobil ilovalar texnologiyasi va ulardan ta'lif tizimida foydalanish texnologiyasi.Экономика и социум, 11.
5. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lif metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent - 2017
6. Xudoyqulov Ma'ruf Dissertatsiyonomi, joyi, yiliBuxDU, TerDU
7. A.J.Ernazarov "Maktab va oila hamkorligisiz yuksalish bo'lmaydi". Zarafshon gazetasi 2024-yil 23-yanvar
8. Sh.Abdurahim (Ph.d) "Ta'lif natijalariga ta'sir etuvchi omillar"
9. Ma'rifat gazetasi 2024-yil 24-aprel